

BUXOROLIK TADBIRKOR AYOLLARNING VATAN RAVNAQI YO'LIDAGI  
XIZMATLARI – TARIX KO'ZGUSIDA.

Kazakova Marifat Dexkanovna

*Buxoro davlat universiteti*

*Jahon tarixi kafedrasida mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida O'zLiDeP partiyasi tomonidan tashkil etilgan "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovining tarixiy ahamiyati va Buxoro viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi o'rni haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Partiya, gender tenglik, Buxoro, xotin-qizlar, loyihalar, ijtimoiy-siyosiy faollik

**Аннотация.** В данной статье описано историческое значение конкурса «Ishbilarmon ayol», организованного партией УзЛиДеП в целях развития предпринимательства в республике и его роль в повышении общественно-политической активности женщин Бухарской области.

**Ключевые слова.** партия, гендерное равенство, Бухара, женщины, проекты, общественно-политическая деятельность

**Abstract.** This article describes the historical significance of the "Ishbilarmon ayol" competition, organized by the UzLiDeP party in order to develop entrepreneurship in the republic and its role in increasing the socio-political activity of women in the Bukhara region.

**Keywords.** party, gender equality, Bukhara, women, projects, social and political activities

So'nggi yarim asrda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish muhim jarayonlardan biri sifatida butun dunyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, aynan xotin-qizlar tadbirkorligining salohiyati jahon yalpi ichki mahsulotini ikki barobarga oshirishi mumkin. Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan biznes, ya'ni bolalar va yoshlarni har tomonlama yuksaltirish va ularga ta'lim berish sohasidagi loyihalarning 90 foizi aynan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirilayotgani muhim jihat hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlik tashabbuslarini yanada qo'llab-quvvatlash borasida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda<sup>1</sup>. Xususan, turli tashkilotlar hamda partiyalar tomonidan ilgari surilgan va hayotga tadbqiq qilingan dasturlar, tanlovlar, davra suhbatlari va seminarlarni misol qila olamiz.

Siyosiy partiyalar tashabbusi bilan tashkil qilingan ko'rin-tanlovlar qatoriga "Ayol borki –olam munavvar", "Ma'rifatli ayol" (Milliy tiklanish demokratik partiyasi), "Ona tabiatni asraylik", "Yashil yillik umummilliy loyihasi" (O'zbekiston Ekologik partiyasi),

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/xotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-ularning-jamiyat-hayotidagi-faol-ishtirokini-taminlash-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida>

"Yoshlar kelajak tayanchi", "Jinoyatsiz kelajak sari", "Gender tengligi davr talabi" (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi), "Tozalik yo'lida birlashaylik", "Adolatchi ayol bong uradi" (O'zbekiston Adolat sotsial demokratik partiyasi) "Ayol –yuksak ma'naviyat sohibasi", "Bunyodkor ayollar", "Ishbilarmon ayol", "Farovon oila" (O'zLiDeP) kabilarni kiritishimiz mumkin.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida ayollar uchun doimiy ish joylarini yaratish va shu bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ishlari bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish vazifalari belgilanishi bilan ko'rik-tanlovlar ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Birgina Buxoro viloyati miqyosida tahlil qiladigan bo'lsak, partiyalar tomonidan yil davomida 20 dan ortiq loyiha va ko'rik-tanlovlar tashkil qilinib, unda 50 mingdan ortiq xotin-qizlar iqtisodiy islohotlar, ma'naviy yangilanish va jamiyat demokratlashuvi jarayonlarida ishtirok etmoqdalar.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy, ma'naviy va intellektual o'sishiga ko'maklashish, bandlik masalalarini hal qilish, mehnat qilishlari uchun yetarli shart-sharoitlarni ta'minlash va yaxshilash, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish masalalarini o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab olgan tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi ko'plab ko'rik-tanlov, loyiha, seminar va davra suhbatlari tashkil qilish orqali partiya tomonidan ilgari surilayotgan dasturlarni yanada tezroq xalqqa yetkazishni maqsad qilgan.

Respublika ishbilarmon ayollarini birlashtirish maqsadida O'zLiDeP tomonidan 2016-yildan "Ishbilarmon ayol" respublika ko'rik-tanlovi tashkil qilindi. Tanlovning asosiy maqsadi xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik va fermerlik faoliyatini yanada rivojlantirish, ular rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari o'rtasida xo'jalik aloqalarini kengaytirishga ko'maklashish, tadbirkorlikni sifat jihatdan rivojlantirishda ilg'or tajribalarni ommalashtirish hisoblanadi. Buxoro viloyatida ham ushbu ko'rik-tanlov ishbilarmon ayollar va tadbirkorlik faoliyatini endi boshlagan xotin-qizlar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, Misol tariqasida, ko'rik-tanlovda o'tgan davr mobaynida 6 mingdan ziyod buxorolik xotin-qizlar ishtirok etdi<sup>2</sup>.

"Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!" shiori ostida mustaqillikning 25 yilligiga bag'ishlab ilk marotada "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi ta'sis qilindi<sup>3</sup>. Ushbu tanlov faol, shijoatli, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkor va fermer xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilib, xotin-qizlarni partiya harakat dasturidan xabardor qilish, bu orqali esa partiya tarafdorlari safini yanada kengaytirishga xizmat qilishi ko'zda tutildi.

O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi tomonidan 2016-yil 20-iyulda "Ishbilarmon ayol" ko'rik-tanlovi viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Har bir shahar va tumanlardan munosib ko'rilgan 3 nafardan ishtirokchilar Viloyat bosqichi g'olibligi uchun ishtirok etdi. Ishtirokchilar innovatsion loyihalari, fermer xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha erishgan

<sup>2</sup> <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/12817>

<sup>3</sup> O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi 2016-yil 25-yanvardagi 01-08/16-sonli qarori

yutuq va natijalari nusxalari, rasm va videolar "Baholash mezonlari" asosida xolis baholandi. 4 ta nominatsiya bo'yicha yuqori natijaga erishgan ishtirokchilar ko'rik-tanlovning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritishdi. "Eng yaxshi tadbirkor ayol" nominatsiyasi g'olibligini G'ijduvon tumani "G'ijduvon mashhurasini" xususiy korxonasi rahbari Zamira Xaydarovna Safarova, "Eng yaxshi fermer ayol" nominatsiyasi g'olibligini Jondor tuman "G'afurova Sidiqa Ziyodullayevna" fermer xo'jaligi rahbari Sidiqa Ziyodullayeva G'afurova, "Eng yaxshi hunarmand" nominatsiyasi g'olibligini G'ijduvon tumani yakka tartibdagi hunarmand, kashtachi Mavluda Ibodullayevna Narzullayeva, "Muruvvatli ishbilarmon ayol" nominatsiyasi g'olibligini Peshku tumani "Malishoyak" fermer xo'jaligi rahbari Sanam Baqoyevna Jumayevalar sovrindor sifatida yuqori baholandi va respublika bosqichiga chiqishdi<sup>4</sup>. Ko'rik-tanlov ilk marotaba tashkil qilinganligiga qaramasdan tarixiy ahamiyat kasb etdi. 2016-yilda O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi a'zolari 13113 nafar kishi bo'lib, shundan xotin-qizlar 6194 nafar ya'ni 47 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 17392 nafar kishi a'zo bo'lib, shundan 8390 nafarini ya'ni 48 foizini xotin-qizlar tashkil qildi<sup>5</sup>. Bunda ikkita alohida jihatni ko'rsatib o'tsak bo'ladi. Birinchidan, 2017-yildan islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilganligi va O'zLiDeP partiyasi dasturlarining amalga oshirish mexanizmlarining takomillashtirilishi, ikkinchidan, mamlakat iqtisodiyotida xotin-qizlar ishtirokidagi xususiy sektor ulushi va ahamiyatini oshirish, tadbirkorlik rivojida ayollarning ishtirokini yanada kuchaytirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil qilingan ko'rik-tanlovlarga viloyat xotin-qizlari tomonidan bo'lgan e'tibor samarasidir.

O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi tomonidan 2017-2019-yillar davomida "Ishbilarmon ayol", "Bunyodkor ayollar", "Sog'lom oila –mustahkam oila", "Durdona", "Farovon oila" kabi viloyat xotin-qizlarining ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish masalalariga bag'ishlangan qator ko'rik-tanlov va tadbirlar tashkil qilindi. Ushbu davr oralig'ida partiya a'zoliciga qabul qilingan xotin-qizlar soni 40 foizga ko'tarilganini ko'rish quvonarli hol.

"Zamonaviy tashabbuskor ayol", "Yilning muruvvatli ishbilarmon ayoli", "Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishda faollik ko'rsatgan fermer ayol", "Investitsiyalarni jalb qilishda tashabbus ko'rsatgan ishbilarmon ayol", "Eng yosh, faol ayol tadbirkor" kabi yangi nominatsiyalarning tashkil qilinishi Buxoro viloyati miqyosida xotin-qizlar o'rtasida xususiy tadbirkorlik va fermer xo'jaliklarini yuritish ishlariga qiziqishlarini yanada oshirdi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlab "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida o'tkazilgan "Ishbilarmon ayol-2019" ko'rik-tanlovi respublika bosqichida faxrli 2-o'rinni "Ark travel" sayyohlik kompaniyasi rahbari Inobat Karimova Sunnatovna egalladi<sup>6</sup>. Bunday e'tibor va e'tirof samarasi o'laroq Inobat Karimova tomonidan 2019-yilning o'zida yosh, bilimli, ingliz tili va yurtimiz tarixidan yaxshi xabardor yoshlarga 25 ta yangi ish o'rni yaratildi.

<sup>4</sup> O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2016-yil ma'lumoti

<sup>5</sup> O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2016-2017-yil ma'lumoti

<sup>6</sup> <https://uzlidep.uz/news-of-party/4851>

"Ishbilarmon ayol-2020" ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi oldingilaridan tubdan farq qildi. Sababi O'zLiDeP tomonidan xotin-qizlarni oilaviy tadbirkorlikka, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlikka jalb etish hamda bandligiga ko'maklashish orqali yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarga bu yilgi pandemiya sharoitida e'tibor yanada kuchaytirildi. "Zamonaviy tashabbuskor ayol" nominatsiyasi bo'yicha viloyat bosqichida g'olib bo'lgan matolarga dizayn va ishlov berish bilan shug'ullanuvchi Hamdamova Dilafro'z Sharipovna, respublika bosqichida "Yilning muruvvatli ishbilarmon ayoli" nominatsiyasi g'olibligini qo'lga kiritdi. Peshku tumanida bugungi kunda 35 nafar xotin-qizlarni doimiy ish o'рни bilan band qildi.

2021-2022-yillarga mo'ljallangan "Xotin-qizlar ishbilarmonligini oshirish"<sup>7</sup> dasturini amalga oshirish maqsadida har bir mahallada ishsiz, uyda o'tirgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni doimiy daromad manbaiga ega qilish, tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlariga ko'maklashish, shu bilan birga ayollar orasidagi ishsizlik darajasini kamaytirish maqsadida tanlov va uchrashuvlar tashkil qilindi. "Ishbilarmon ayol-2022" ko'rik tanlovida "Qishloqni ijtimoiy rivojlantirishda faollik ko'rsatgan fermer ayol" nominatsiyasi bo'yicha Buxoro shahridagi "Banoaz tekstil" MChJ rahbari, ko'p tarmoqli tadbirkor, «Mehnat shuhrati» ordeni soxibasi Mahtob Adilova, "Yilning muruvvatli ishbilarmon ayoli" nominatsiyasi bo'yicha viloyat markazidagi "Malika Sulton" oilaviy korxonasi rahbari Yulduz Raximova, "Eng yosh, faol ayol tadbirkor" nominatsiyasi bo'yicha Buxoro shahridagi "Saodatxon tikuv uyi - 2021" MChJ rahbari, korxonasi huzuridagi BPT raisi Saodatxon Sadilloeva, "Zamonaviy tashabbuskor ayol" nominatsiyasida shahardagi "Aholiga sayyor servis va konsalting xizmatlar ko'rsatish" MChJ raisi Shaxnoza Djurayevalar g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Buxoro viloyatida 2017-yildan xotin-qizlarning mavqeyi va rolini yuksaltirish, huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, umuman, hayotning barcha jabhasini modernizatsiya qilishdagi ishtirokini kengaytirish uchun qator davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlar, seminar va ommaviy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://yuz.uz/uz/news/xotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-ularning-jamiyat-hayotidagi-faol-ishtirokini-taminlash-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida>
2. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/12817>
3. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi 2016-yil 25-yanvardagi 01-08/16-sonli qarori
4. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi joriy arxivi, 2016-yil ma'lumoti

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidagi kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to'g'risida// <https://lex.uz/docs/-5248393?ONDATE=30.09.2020%2000>

5. O'zLiDeP Buxoro viloyati Kengashi "Ayollar qanoti" joriy arxivi, 2016-2017-yil ma'lumoti
6. <https://uzlidep.uz/news-of-party/4851>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar to'g'risida// <https://lex.uz/docs/-5248393?ONDATE=30.09.2020%2000>